

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

KARIMOV ANVAR AKTAM O‘G‘LI

**TURISTIK DESTINATSIYALARNI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING
TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(Navoiy viloyati misolida)**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on economical
sciences**

Karimov Anvar Aktam o'g'li

Turistik destinatsiyalarni samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy
mexanizmlarini takomillashtirish (Navoiy viloyati misolida) 3

Каримов Анвар Актам уғли

Совершенствование организационно-экономических механизмов
эффективного развития туристских дестинаций (на примере Навоийской
области) 27

Karimov Anvar Aktam ugli

Improving the organizational and economic mechanisms for the effective
development of tourist destinations (In the case of Navoi region) 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

KARIMOV ANVAR AKTAM O‘G‘LI

**TURISTIK DESTINATSIYALARNI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING
TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(Navoiy viloyati misolida)**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt3381 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb – sahifasi (www.univ-silkroad.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Safarov Bahodirhon Shaxriyorovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Matyakubov Umidjon Raximovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Buxoro Davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.I.145.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 14 sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel: (99890) 213-89-07; Faks: (99866) 240-67-68, e-mail: science-dept@univ-silkroad.uz, info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya ishi bilan "Ipak yo'li" turizm va madaniy me'ros xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№18 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel.: (99866) 240-67-68; Faks: (99866) 240-67-68, e-mail: info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «26» avgust kuni tarqatildi.
(2024-yil «26» avgust dagi 18 raqamli restr bayonnomasi).



A.A.Eshtayev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

X.I.Turdibekov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, i.f.d., dotsent

O.M.Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda insonlar farovonligini oshirish, tabiiy muhitni muhofaza qilish, iqtisodiy taraqqiyotni ragʻbatlantiruvchi sohalardan biriga aylandi. Iqtisodiyotning ushbu sektorida umumiy daromad hajmi trillionlab dollarni tashkil etmoqda va har-yili dunyoda boʻylab bir milliarddan ziyod kishi sayohat qilmoqda. Butunjahon turizm tashkilotining (UNWTO) statistik maʼlumotlariga koʻra, “2023-yilda toʻgʻridan-toʻgʻri turizm yalpi ichki mahsuloti pandemiyadan oldingi darajani tikladi va taxminan 3,3 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Bu global yalpi ichki mahsulotning 3 foiziga teng”¹. Shu tarzda, turistlar oqimini oshirish maʼlum bir hududning tarixiy-madaniy, tabiiy-iqlim, rekreatsion-ekologik jozibadorligi, siyosiy xayrixohlik darajasi, mutaxassislar salohiyati, turistik infratuzilma va xizmatlar sifatining yuqori boʻlishi bilan belgilanadi. Bu borada, bugungi kunda turistik destinatsiyalarni samarali rivojlantirish va turizm sohasini zamonaviy taraqqiy ettirish masalalariga katta eʼtibor qaratilmoqda.

Jahonda turistik destinatsiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish va turistlar oqimini salohiyati mavjud hududlarga yoʻnaltirish boʻyicha, ularga sifatli turistik xizmatlar koʻrsatish jarayonlarida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishga ilmiy izlanishlarga ustuvorlik berilmoqda. Bu borada, turizm sohasida turistik destinatsiyalarni samarali tashkil qilish, tadbirkorlik faoliyatni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, xizmatlar sifatini oshirish, sohaga serkulyar iqtisodiyotning ilgʻor usullarini joriy etish, hududlardagi turizm resurslaridan samarali foydalanish, maxsus turizm hududlarini tashkil etish, investitsiyalarni jalb qilish orqali infratuzilmani takomillashtirish, yangi ish oʻrinlarini yaratish, turizm sohasining YaIMdagi ulushini oshirish kabi yoʻnalishlardagi tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi Oʻzbekistonda mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonida keng koʻlamli va islohotlar doirasida turizm sohasini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, yangi turistik destinatsiyalarni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishda hududlarning salohiyatidan samarali foydalanish hamda turizm sohasini strategik tarmoqlaridan biriga aylantirishga katta eʼtibor berilmoqda. “Turizmni 2030-yilgacha kompleks rivojlantirish boʻyicha strategiyasida zamonaviy turizm va transport infratuzilmasini yaratishga ustuvor ahamiyatiga ega. Yuqori tezlikda harakatlanishga moʻljallangan yangi avtomobil va temir yoʻllar qurish, avitransport parkini 2 barobarga kengaytirish, aviaqatnovlar sonini toʻrt barobarga oshirish lozim. Katta shahar va sayyohlar koʻp boradigan manzillarda 30 ta yirik turizm klasterlari tashkil etilish kerak”². Bu, oʻz navbatida, turizm sohasini barcha hududlar qatorida Navoiy viloyatida ham rivojlanish, uning turistik destinatsiyalaridan samarali foydalanish negizida yangi yoʻnalishlarni ochilishiga olib keladi. Mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish

¹ <https://www.unwto.org/un-tourism-world-tourism-barometer-data>

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining 25-sessiyasidagi nutqi// <https://president.uz/oz/lists/view/6764>

maqsadida Navoiy viloyatning rekratsion, ekstremal, agro, eko, sanoat, arxeologik, sport va boshqa turizm yo'nalishlaridagi salohiyatini o'rganish va turistlarni jalb etish imkoniyatlarini aniqlash, turistik destinatsiyalarning samaradorligini oshirishning usullarini hamda transport yo'nalishlarini takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlarini turizm faoliyatiga jalb qilish, madaniy-meros obyektlarni ommalashtirish, ekstremal turizm infratuzilmasini rivojlantirish, istiqbolli turistik yo'nalishlarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-son "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 30-apreldagi PQ-232-son "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-sonli 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi³.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizm xizmatlar bozorini rivojlantirishning nazariy-metodologik masalalari I.Yendjeychik, F.Sherer, D.Ross, F.Kotler, Dj.Bouen, Dj.Meykenz, M.Enrayt⁴, V.I.Azar, I.T.Balabanov, A.I.Balabanov, M.A.Jukova, N.I.Kabushkin, M.B.Birjakov, V.I.Nikiforov,

³ <https://lex.uz> — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

⁴Енджейчик И. Современный туристский бизнес. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 320 с.; Шерер Ф., Росс Д. Структура отраслевых рынков: Пер. с англ.М.: ИНФРА-М. 1997.– 698 с.; Котлер Ф., Боуэн Дж., Мейкенз Дж. Маркетинг. Гостеприимство. Туризм: Учебник для вузов. Второе издание. - М.: ЮНИТИ - ДАНА, 2002. – 1063с.; Enright. M.J. Regional clusters and Economic Development: A research agenda // Bussiness Networks: Prospects for Regional Development, edited by U.H. Staber et al., Berlin: Walter de Gruyter, 1996, pp. 190-213.

V.S.Novikovlarning ⁵ kabi xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida turistik destinatsiyalarning ayrim jihatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarni ilmiy ishlarida kuzatish mumkin. Mamlakatimizda turizm sohasining turli masalalari bo‘yicha Q.X.Abdurahmanov, N.T.To‘xliyev, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev, B.Sh.Safarov, O.M.Pardayev, M.T.Aliyeva, O.H.Xamidov, A.N.Norchayev, A.T.Mirzayev, N.S.Ibragimov, U.R.Matyakubov, N.U.Arabov ⁶ kabi iqtisodchi olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Mamlakatimiz hududlaridagi mavjud turistik salohiyatdan samarali foydalanish, turizmni yanada rivojlantirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishga doir ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ularda hozirgi paytdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasidagi o‘zgarishlar, hududlar iqtisodiyotini baholash, turizm sohasini raqamli transformasiyalash va innovatsion yondashuvlar asosida turistik destinatsiyalarni samarali rivojlanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish kabi masalalar yetarlicha o‘z aksini topmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Turizm” kafedrasining №SAMISI17/2 “Turizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hududlarda turistik destinatsiyalarni samarali rivojlantirishning usullarini hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hududlarda turistik destinatsiyalar bilan bog‘liq tushunchalarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini asoslash;

⁵ Азар В.И., Туманов С.Ю. Экономика туристского рынка. - М.: ИПКГ, 1998.-239 с.; Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. Учеб. Пособие. - М.: Финансы и статистика, 2003. – 176 с.; Биржаков М. Б., Никифоров В. И. Индустрия туризма: Перевозки. -СПб., 2001. – 399 с.; Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе. Учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2006. -160с.; Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма: Учебник. 4е изд., стереотип. Мн.: Новое знание, 2004. - 409 с.; Новиков В.С. Инновации в туризме. Учебное пособие – М.: Туризм, 2010. - 203 с.

⁶ Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма: Учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова» в г. Ташкенте, 2013. -248 с.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. – Т.: Гос. Науч. Изд. "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006. -386 с.; Pardayev M.Q., Atabayev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. -Samarqand: SamISI, 2006. – 137 b.; Tuxliev I. Turizm asoslari. Samarqand: SamISI. 2015. – 271 b.; Eshtayev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O‘zbekiston Respublikasi turizm tarmog‘i misolida). DSc. Dissertatsiya avtoreferati – Samarqand. 2019.-246 b.; B.Sh. Safarov Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari. //Monografiya. -T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2016. –148 b.; Pardayev O.M. Menejment. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2019. –248 b.; Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlar: iqt.fan.dok. diss. avtoref. – S.: SamISI, 2019. -77 b; Hamidov O.H., Norchayev A.N. Ekoturizm. — Darslik. — T.: TDIU, 2011. -138 b.; Norchayev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari. DSc. Dissertatsiya avtoreferati-Toshkent. 2021.; Mirzayev A.T. O‘zbekistonda turistik-rekreasiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. DSc. diss. avtoref. – Toshkent, 2021. –.68 b.; Ibragimov N.S., Turistik hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari // Buxoro: Durdona nashriyoti 2020. – 204 b.; Матякубов У.Р. Туризмда тараққиёт стратегиясини амалга ошириш муаммолари – Тошкент: “Фан ва технологиялар” нашриёт-матбаа..., 2022., Arabov N.U. va b. Kadrlarni innovatsion boshqarish. – Samarqand, SamDU, 2022. – 334 b.

turistik destinatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirishning xorijiy tajribalarini o‘rganish va ulardan mamlakatimizda foydalanish yo‘llari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

Navoiy viloyatining turistik salohiyati, ulardan foydalanish holati va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish hamda uning turistik destinatsiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini baholash;

Navoiy viloyatida turistik destinatsiyalarni samarali tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llarini aniqlash;

Navoiy viloyatining turistik destinatsiyalari kontentini yaratish, reklama-targ‘ibot ishlarini olib borish yo‘nalishlarini aniqlash;

turistik marshrutlarda Navoiy viloyati turistik destinatsiyalarining qamrab olinish darajasini oshirish yo‘llarini aniqlash;

ekonometrik modellar yondashuvi asosida hududlar turizm sohasi barqaror rivojlanishini bashorat qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida mamlakatimiz, jumladan Navoiy viloyatida turizm sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik yurutuvchi subyektlar olindi.

Tadqiqotning predmeti turistik destinatsiyalarni samarali rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning keng ko‘lamli majmuasini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, abstrakt-mantiqiy tahlil, ekonometrika, kuzatish, sotsiologik so‘rov, SWOT-tahlil, qiyoslash, korrelyasiya, regressiya, ekstropolyasiya, statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi doirasida 690 ming nafar aholining ichki sayohatlarini tashkil etish asosida hududlarda madaniy tadbirlar tashkil etish va targ‘ibotlar olib borish yo‘nalishida Xatirchi tumanida “Sahro baxshilari” musiqiy festivalini, Nurota tumanida “Nurli navolar” xalqaro folklor festivalini, Nurota tumani Chashma majmuasida “So‘zana va kashta” xalqaro festivalini o‘tkazish bo‘yicha takliflar dalillangan;

Navoiy viloyatiga xorijiy turistlar tashrifini tashkil etish maqsadida Nurota, Qiziltepa va Xatirchi tumanlarining o‘ziga xos etnografiyasini, nomoddiy meros obyektlarini, gastronomik o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish asosida “Navoiy travel” turistik portali zamonaviy talablariga moslashtirish, turistik jozibadorligini oshirish, interaktiv xaritasining funksional vazifalarini ko‘paytirish, ularning xalqaro va mahaliy saytlarga integratsiyasini ta‘minlash hamda kontentlari tahlilini amalga oshirish bo‘yicha takliflar asoslangan;

Navoiy viloyati hududlarining imkoniyatlari negizida “Sangijumon: abadiy tebranuvchi tosh yohud Xatirchi ajoyibotlari” bo‘yicha loyihasining reklama-targ‘ibotini tashkil etish, “Angidon - Xatirchidagi kichik Shveysariya” va “Nurotaning qadimgi korizlari” dasturlarini targ‘ibot qilish asosida turizm sohasining subyektlari tomonidan taqdim etiladigan chegirmalarni o‘z ichiga olgan hamyonbop turpaketlar ishlab chiqish takliflari asoslangan;

Navoiy viloyati hududlarning turistik salohiyati va turizmni samarali rivojlantirish ko'rsatkichlarning prognoz hisob-kitoblari asosida 2028-yilgacha bo'lgan o'rta muddatli prognoz parametrlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Nurota, Xatirchi va Qiziltepa tumanlarining yangi turizm yo'nalishlari va mahsulotlarini targ'ib qilish bo'yicha Navoiy viloyatining turistik destinatsiyalari jozibadorligi hamda turistlar qiziqishlarini oshirish maqsadida "kontent matritsasi" loyihasi ishlab chiqilgan;

Navoiy viloyati hududlari bo'yicha ziyorat va ekoturizm yo'nalishlaridagi yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish asosida Xatirchi tumani "Oltinsoy" MFY hududidagi mavjud termal buloqlardan foydalangan holda, hududda sanatoriylar faoliyatini rivojlantirishda 1 ta sog'lomlashtirish va dam olish maskanini tashkil etish hamda Nurota tumani Sentob turizm qishlog'idan oqib o'tuvchi soydan avtomashina va piyodalar o'tishi uchun 5 ta ko'prik qurishi bo'yicha dalillangan;

Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi asosida Nurota tumanining Aydarko'l hududidan Qoraqolpog'iston Respublikasining Orol dengizigacha bo'lgan masofada xalqaro "Great Silk Road Desert Ralli" sahro ralli musobaqalarini tashkil qilish natijasida turistlar oqimini ko'paytirish bo'yicha innovatsion rivojlanish yo'nalishlari belgilangan;

Navoiy viloyatida turistik faollikni oshirish strategiyasi va ustuvor yo'nalishlari, mavjud muammolari baholanib, turistik imkoniyatlari yondashuvi asosida rekreatsion-sog'lomlashtirish xizmatlaridan samarali foydalanish mexanizmi bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi axborot bazasining rasmiy manbalaridan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm Qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma'lumotlari, Samarqand viloyati bo'limlari manbalaridan olinganligi taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va metodologik-uslubiy asoslar hududlarda turistik destinatsiyalarni samarali rivojlantirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishga, milliy turizm mahsulotining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga hamda tahlil qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan hududlarda turistik destinatsiyalarni samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishga, turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni, hududlardagi turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurutuvchi sub'ektlar faoliyatini takomillashtirishga doir tadbirlarni ishlab chiqishda, shuningdek,

2022-2027--yillarda Yangi O‘zbekiston rivojlanish strategiyasining ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida hamda 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135-sonli qarori ijrosini ta‘minlash uchun Navoiy viloyatida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga muayyan darajada xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hududlarda turizm destinatsiyalarini samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi doirasida 690 ming nafar aholining

ichki sayohatlarini tashkil etish asosida hududlarda madaniy tadbirlar tashkil etish va targ‘ibotlar olib borish yo‘nalishida Xatirchi tumanida “Sahro baxshilari” musiqiy festivalini, Nurota tumanida “Nurli navolar” xalqaro folklor festivalini, Nurota tumani Chashma majmuasida “So‘zana va kashta” xalqaro festivalini o‘tkazish bo‘yicha dalillangan takliflar 2023-yil 26-apreldagi 135-son “2023-yilda Navoiy viloyati turizm sohasidagi resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hamda mavjud muammolarni tezkor hal etish” bo‘yicha yo‘l xaritasiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhit va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 30-apreldagi № 03-11-17-289-sonli dalolatnomasi). Natijada, Navoiy viloyatiga 690 ming mahalliy turistlar tashrifini tashkil etish imkoniyati amalga oshirilgan;

Navoiy viloyatiga xorijiy turistlar tashrifini tashkil etish maqsadida Nurota, Qiziltepa va Xatirchi tumanlarining o‘ziga xos etnografiyasini, nomoddiy meros ob‘ektlarini, gastronomik o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish asosida “Navoiy travel” turistik portali zamonaviy talablariga moslashtirish, turistik jozibadorligini oshirish, interaktiv haritasining funksional vazifalarini ko‘paytirish, ularning xalqaro va mahalliy saytlarga integratsiyasini ta‘minlash, kontentlari tahlilini amalga oshirish bo‘yicha amaliy asoslangan takliflar 2023-yil 26-apreldagi 135-son “2023-yilda Navoiy viloyati turizm sohasidagi resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hamda mavjud muammolarni tezkor hal etish” bo‘yicha yo‘l xaritasiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhit va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 30-apreldagi №03-11-17-289-sonli dalolatnomasi). Natijada, Navoiy viloyatiga 140 ming nafar xorijiy turistlarni jalb etish imkonini yaratgan va bu orqali, viloyatning iqtisodiy rivojlanishiga va mahalliy aholining daromad darajasining oshishiga hissa qo‘shgan;

Navoiy viloyati hududlarning imkoniyatlari negizida “Sangijumon: abadiy tebranuvchi tosh yohud Xatirchi ajoyibotlari” bo‘yicha loyihasining reklamatarg‘ibotini tashkil etish, “Angidon - Xatirchidagi kichik Shveytsariya” va “Nurotaning qadimgi korizlari” dasturlarini targ‘ibot qilish asosida turizm sohasining sub‘ektlari tomonidan taqdim etiladigan chegirmalarni o‘z ichiga olgan hamyonbop turpaketlar ishlab chiqish bo‘yicha asoslangan takliflar 2023-yil 26-apreldagi 135-son “2023-yilda Navoiy viloyati turizm sohasidagi resurslar va

imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hamda mavjud muammolarni tezkor hal etish” bo‘yicha yo‘l xaritasiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhit va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 30-apreldagi №03-11-17-289-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi, Navoiy viloyati madaniy meros resurslarining turistik kontentlarini yaratish samaradorligini oshirgan hamda ularni faol targ‘ib qilish, turistlarning turistik destinatsiyalarga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qilgan;

Navoiy viloyati hududlarning turistik salohiyati va turizmni samarali rivojlantirish ko‘rsatkichlarning prognoz hisob-kitoblari asosida 2028-yilgacha bo‘lgan o‘rta muddatli ishlab chiqilgan prognoz parametrlarini qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar Turizm qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan “2024-2026-yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil o‘rganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar dasturi” va “Yo‘l xaritalari”ga kiritilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhit va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 30-apreldagi № 03-11-17-289-sonli dalolatnomasi). Natijada Navoiy viloyati turizm destinatsiyalarida tegishli parametrlarni qo‘llash hisobiga hududlarni rivojlantirish imkoniyatlari dalillangan. Yuqoridagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan foydalanish turizm va mehmondo‘stlik sohasini rivojlanishiga hamda sohada ish o‘rinlari yaratilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan 7 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi: Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 22 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, jumladan, 2 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 143 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Turistik destinatsiyalarni tashkil qilish va rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “turistik destinatsiya” tushunchasining mohiyati va uni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, turistik destinatsiyalarning turlari, tasnifi va rivojlantirish

omillari hamda turistik destinatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirishning xorijiy tajribalari berilgan.

Olib borilgan tadqiqotlarimizdan ma'lum bo'ldiki, turistik destinatsiyalar bo'yicha ko'plab olimlar va mutaxassislar tadqiqotlarni olib borgan. Ularning ishlarida turistik destinatsiyalarning turli jihatlari, jumladan, ularning tashkiliy tuzulmasi, marketing strategiyalarini, tashkil qilish, rivojlantirish va boshqarish kabi jihatlari yoritilgan. Ularni o'rganish va tahlil qilish asosida, turistik destinatsiya tushunchasining takomillashgan mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi.

Bizning fikrimizcha, turistik destinatsiya – o'ziga xos xususiyatlari bilan turistlarni eng ko'p jalb qiladigan hamda ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan, turistlarning tashrif buyurishiga motivatsiya beradigan, turistik tizimni faollashtiradigan, turistik resurslar va turistik jozibadorlikka ega bo'lgan hudud (manzil, makon) hisoblanadi. Turistik destinatsiya tabiiy go'zalliklari, madaniy va tarixiy yodgorliklari, ko'ngilochar va dam olish obyektlari, shuningdek, turistlar uchun qulay infratuzilma va xizmatlar bilan ajralib turadi.

Turistik destinatsiyalarni tashkil qilish va rivojlantirish ko'plab omillarga bog'liq. Ularni quyidagi asosiy yo'nalishlarga bo'lish mumkin (1-rasm):




1-rasm. Turizm destinatsiyalarini rivojlantirish omillari tizimi⁷

Rasmga (1-rasm) e'tibor berar ekanmiz, har qanday faoliyat turining shakllanishi va rivojlanishida ma'lum bir omillarning ta'siri muhim bo'lganidek, turizm destinatsiyalari ham qandaydir omillar ta'sirida shakllanadi va rivojlanish jarayonlariga ega bo'ladi.

⁷ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqildi

Dissertatsiyaning “**Navoiy viloyatida turistik destinatsiyalarning rivojlanish holati va uni baholash yo‘nalishlari**” deb nomlangan ikkinchi bobida Navoiy viloyatining turistik salohiyati va ulardan foydalanish holati, turistik veb-saytlari tahlili, Navoiy viloyatida turistik destinatsiya salohiyatidan foydalanish imkoniyatlarini baholash usullari va istiqbolli ko‘rsatgichlari hamda Navoiy viloyatida yangi turistik destinatsiyalarni tashkil etish imkoniyatlari tahlili amalga oshirilgan.

Viloyat hududida 7 ta monumental yodgorliklar, 69 ta arxitektura yodgorliklari, 340 ta arxeologiya yodgorliklari, 5 ta diqqatga sazovor joylar va 16 ta monumental san‘at yodgorliklari mavjud. Mazkur moddiy madaniy meros resurslari keltirilgan hududlar kesimida notekis joylashuv xususiyatga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin (2-rasm).



2-rasm. Navoiy viloyatining moddiy madaniy meros obyektlarining hududlar kesimidagi joylashuvi⁸ (%)

2-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Navoiy viloyatining moddiy madaniy meros obyektlarining asosiy qismi Xatirchi (24%) hamda Qiziltepa (16,7%) tumanlarida joylashgan. Ammo ushbu hududlarning turistik salohiyatidan foydalanish darajasi qoniqarsiz holatda ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Viloyatda turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud, bular orasida madaniy, tarixiy, ekologik va sayohat turizmi muhim o‘rin tutadi. Xususan, “Sentob” turizm qishlog‘i, Sarmishsoy qoyatosh tasvirlari, Karmana tumanidagi arxeologik yodgorliklar va qadimiy shahar xarobalari, Nurota tumanining tarixiy va madaniy turistik salohiyati, Nurota davlat qo‘riqxonasi, Angidon turistik destinatsiyasi, Qizilkum sahrosi, Jaraqduq darasidagi “tosh o‘rmon”, Navbahor

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk ob’ektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 846-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq muallif tomonidan tayyorlandi.

tumanidagi kurortlar, Qiziltepa tumaning To‘dako‘l suv havzasi kabilar viloyatning turistik jozibadorligini oshiruvchi asosiy destinatsiyalar hisoblanadi.

Navoiy viloyatida olib borilgan ishlar va erishilgan natijalar sarhisobi bo‘yicha viloyatga “158 ming nafar xorijiy va 1 million 400 ming nafar mahalliy sayyohlar tashrifi kuzatilib, turizm xizmatlari eksporti 39,5 mln.dollarni tashkil etgan. Viloyatdagi joylashtirish vositalari soni 210 taga, o‘rinlar soni 6227 taga yetkazilgan (1-jadval). 2024-yilda 350 ming xorijiy sayyohlar tashrifidan, turizm xizmatlari eksporti hajmi 87,5 mln.dollarga yetkazish, 30 ta joylashtirish vositalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali, 90 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratish rejalashtirilmoqda”⁹.

1-jadval

2016-2023-yillardagi Navoiy viloyatining turizm sohasi asosiy ko‘rsatkichlari¹⁰

№	Ko‘rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	Tashrif buyurgan turistlar soni (ming nafar), jumladan:	1564	2131	2573	2461	21	531	1021	2358
1.1	<i>Mahalliy</i>	1550	2110	2540	2404	18	522	995	2200
1.2	<i>Xorijiy</i>	14,2	21,3	32,6	57,4	2,8	9	26,2	157,7
2	Jami joylashtirish vositalari soni (birlik)	11	14	21	44	75	126	164	210
2.2	<i>O‘rinlar soni</i>	1480	1650	1877	2285	3600	4367	5391	6035
3	Turistik kompaniyalar	1		2	15	21	22	25	50
4	Hamroh tarjimonlar (GID) soni	2	2	2	5	9	13	17	22
5	Turizm namoyish obyektlari	17	18	20	25	31	38	40	50
6	Turistik yo‘nalish-dagi avtotransport vositalari	35	40	53	60	70	83	94	110


Jadval (1) ma’lumotlari bo‘yicha, tashrif buyurgan turistlar soni (ming nafar) 2016-yilda 1564 dan 2023-yilga kelib 2358 ga, jami joylashtirish vositalari soni 11 dan 210 ga, turistik kompaniyalar soni 1 dan 50 ga, hamroh tarjimonlar (GIDlar) soni 2 dan 22 ga, turizm namoyish obyektlari soni 17 dan 50 ga, turistik yo‘nalishdagi avtotransport vositalari soni 35 dan 110 ga oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tahlil qilinayotgan javdalga e’tibor berar ekanmiz, birgina tashrif “buyurgan turistlar soni” ko‘rsatkichidan tashqari barcha asosiy ko‘rsatkichlarda sezilarli o‘shish kuzatilgan. Umumiy holatda, tashrif buyurgan turistlar soni 2016-yilda 1564 ming nafardan boshlab, 2023-yilga kelib 2358 ming nafargacha oshgan, jumladan, mahalliy turistlar soni 1550 ming nafardan 2200 ming nafarga, xorijiy turistlar soni 14,2 ming nafardan 2023-yilga kelib 157,7 ming nafarga yetgan (3-rasm).

E’tibor berish kerak bo‘lgan nuqta, ya’ni 2020-yilgi natijalarda keskin pasayish kuzatilgan bo‘lib, bu COVID-19 pandemiyasi bilan bog‘liq cheklovlar ta’sirida sodir bo‘lgan. Lekin 2021-2022-yillarda tashrif buyurgan turistlar soni qayta oshishni boshlagan.

⁹ Navoiy viloyati turizm boshqarmasi ma’lumotlari

¹⁰ Navoiy viloyati turizm boshqarmasi ma’lumotlari



3-rasm. 2016-2023-yillardagi Navoiy viloyatiga tashrif buyurgan mahalliy va xorijiy turistlar sonining o'zgarish dinamikasi

Navoiy viloyatida xalqaro musiqiy va folklor festivallarini o'tkazish O'zbekistonning madaniy va turistik jozibasini oshirish uchun ajoyib imkoniyat yaratishi mumkin. Bu festivallar mahalliy san'at va madaniyatni namoyish etish bilan birga, Navoiy viloyatining betakror tabiati va tarixiy obidalarini ko'rsatish imkonini ham beradi.

O'zbekistonning boy madaniy merosi va an'anaviy san'atini targ'ib qilish maqsadida ichki sayohatlarni faollashtirish uchun turli festivallarni tashkil etish zarur. Jumladan:

“Sahro baxshilari” musiqiy festivali (Xatirchi tumani). Bu festival mahalliy baxshilar va shoirlarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning asarlarini keng ommaga yetkazish uchun mo'ljallangan. Festival dasturida turli mintaqalardan kelgan baxshilarning chiqishlari, shuningdek, mahalliy an'anaviy musiqa asboblari bo'yicha mahorat darslari ham o'rin olishi kerak;


“Nurli navolar” xalqaro folklor festivali (Nurota tumani). Bu festival xalq og'zaki ijodiyotini, jumladan, qo'shiqlar, raqslar va rivoyatlarni namoyish etishga bag'ishlangan. Festival dasturiga xalqaro mehmonlarni taklif etish, shu tariqa madaniy almashinuvni rag'batlantirish muhim;

“So'zana va kashta” xalqaro festivali (Chashma majmuasi, Nurota). Bu festival milliy hunarmandchilik san'atini, ayniqsa, kashtachilik va so'zanado'zlikni olg'a surishga qaratilgan. Festivalda mahalliy va xorijiy hunarmandlarning ishlari namoyish etilib, usta-shogird an'analari asosida mahorat saboqlarini tashkil etilishi lozim.

Bu takliflarni ishlab chiqishda aholining madaniy manfaatlari, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish va sayyohlarni jalb qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqish kerak. Shuningdek, Xalqaro va respublika darajasidagi tadbirlar va festivallarni tashkil qilish hamda o'tkazishda, tajribali mutaxassislar tomonidan marketing va targ'ibot strategiyasini ishlab chiqish, hamkorlik va homiylik tadbirlarini amalga oshirish lozim bo'ladi.

Turistik destinatsiyalarning samarali foydalanish imkoniyatlarini baholash - bu turizm sohasida muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayon destinatsiyaning jozibadorligini oshirish, undan keladigan daromadlarni maksimallashtirish va ekologik hamda madaniy resurslarni saqlab qolishga qaratilgan.

Olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalariga ko'ra, turistik destinatsiyalarni baholashning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin (4-rasm).



4-rasm. Turistik destinatsiyalarni baholashning asosiy yo'nalishlari¹¹

Turistik destinatsiyalarni samarali baholash va rivojlantirish orqali turizm sohasida barqaror o'sishga erishish mumkin. Bu o'sish nafaqat iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlaydi, balki ekologik barqarorlikni hamda madaniy va ijtimoiy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlaydi.

Navoiy viloyatida turistik destinatsiyalarning rivojlanishini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlar - viloyatga tashrif buyurgan jami xorijiy turistlar soni, joylashtirish vositalari soni hamda jami joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni taqqoslanayotgan oldingi-yillarga nisbatan o'sib borgan. Jumladan, 2023-yilda 2022-yil bilan taqqoslaganda viloyatga tashrif buyurgan jami xorijiy turistlar soni – 6 martaga, joylashtirish vositalarining soni – 28,1 foizga va joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni esa – 12 foizga ko'paygan. Tahlil ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, keltirilgan ko'rsatkichlar orasida yuqori o'sish **jami joylashtirish vositalaridagi o'rinlar** sonida kuzatilgan. Navoiy viloyatida turistik destinatsiyalar rivojlanish ko'rsatkichlarini prognoz qilish uchun 2015-2023-yillardagi turizmning rivojlanishini aks ettiruvchi viloyatga tashrif buyurgan jami xorijiy turistlar soni, jami joylashtirish vositalari soni hamda jami joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni kabi ko'rsatkichlar asos qilib olindi.

¹¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqildi.

2-jadval

Navoiy viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy turistlar, viloyatdagi joylashtirish vositalari va joylashtirish vositalaridagi o‘rinlar soni ko‘rsatkichlarining 2024-2027-yillarga mo‘ljallangan prognoz parametrlarining hisob-kitobi

Ko‘rsatkichlar	Matematik modellarning formulalari	Natija bilan omillarning bog‘liqlik darajasi
Viloyatga tashrif buyurgan xorijiy turistlar sonining o‘rish sur‘ati	$y=29,654x^2 -210,42x+448,61$	$R^2 = 0,478$
Viloyatdagi joylashtirish vositalari sonining o‘rish sur‘ati	$y = 40,617x^2 - 150x + 213,81$	$R^2 = 0,995$
Viloyatdagi joylashtirish vositalarida o‘rinlar sonining o‘rish sur‘ati	$y = 5,364x^2 - 9,0079x + 98,381$	$R^2 = 0,984$

Tahlil olib borilgan 2015-2023-yillarda turizm sohasi uchun muhim ko‘rsatkichlardan hisoblangan viloyatga tashrif buyurgan jami xorijiy turistlar soni – 6 martaga, jami joylashtirish vositalarining soni – 1,2 martaga va jami joylashtirish vositalaridagi o‘rinlar soni esa – 1,1 martaga o‘sganligini ko‘rish mumkin. Tahlil qilingan 2015-2023-yillarda barcha ko‘rsatkichlar (2020-yildan tashqari) muttasil oshib borgan.

Tahlillar natijasida har bir ko‘rsatkichning dinamikasi aniqlandi va ularning o‘rish sur‘ati bo‘yicha matematik modelning apraksimatsiyasi, uning polinomial chizig‘iga to‘g‘ri keldi. Uning formulasi 2-jadvalda keltirildi.

3-jadval

Navoiy viloyatidagi joylashtirish vositalaridagi o‘rinlar sonining 2015-2023-yillar dinamikasi asosida 2024-2027-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari¹²

Yillar	Joylashtirish vositalaridagi o‘rinlar sonining 2015-yilga nisbatan o‘rishi, %	Joylashtirish vositalaridagi o‘rinlar soni, birlik
2015	100	1398
2016	105,9	1480
2017	118,0	1650
2018	134,3	1877
2019	163,4	2285
2020	257,5	3600
2021	312,4	4367
2022	385,6	5391
2023	431,7	6035
2024	544,7	7615
2025*	648,3	9063
2026*	762,7	10663
2027*	887,8	12411

¹²Navoiy viloyati Turizm boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Prognozni amalga oshirish uchun tanlab olingan turistik distenatsiyalarni rivojlanishining ko'rsatkichlari orasida viloyatdagi joylashtirish vositalarida o'rinlar soni natija bilan omillarning bog'liqlik darajasi yuqori, ya'ni $R^2 = 0,984$ ekanligi tahlillar jarayonida aniqlandi. Shu bois, bizlar Navoiy viloyatida turistik distenatsiyalarni rivojlanishini ifodalaydigan asosiy ko'rsatkichlari orasidan viloyatdagi joylashtirish vositalarida o'rinlar sonini tanladik hamda ushbu ko'rsatkichning 2027-yilgacha bo'lgan prognoz parametrlarini 3-jadvalda ishlab chiqdik.

Navoiy viloyatida joylashtirish vositalarida o'rinlar sonining 2015-2023-yillardagi polinomial tenglamasi va uning 2025-2027-yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlarining hisob-kitoblari 4-jadvalda keltirildi.

Navoiy viloyatida joylashtirish vositalarida o'rinlar sonining 2024-2027-yillardagi prognoz parametrlariga ko'ra, 2024-yilda joylashtirish vositalarida o'rinlar soni 7615 tani, 2025-yilda 9063 tani, 2026-yil 10663 tani va 2027-yilga borib mazkur ko'rsatkich 12411 tani tashkil etishi mumkin. Aniqlangan prognoz parametrlariga ko'ra, viloyatda joylashtirish vositalarida o'rinlar soni o'rta istiqbol-yil (2025-yil, 2026-yil va 2027-yil)larda o'rtacha 1,5 barobarga oshishi bashorat qilindi. Xorijiy turistlarni sayohatga chiqish oldidan eng tashvishga soladigan narsa bu ko'zlagan distenatsiyasiga yetib borganda tunab qolish uchun joy topish muammosi hisoblanadi. Viloyatda joylashtirish vositalarini ko'paytirish orqali xorijiy turistlarni ko'proq jalb qilish imkoniyatiga erishamiz.

4-jadval

Navoiy viloyatidagi joylashtirish vositalaridagi o'rinlar sonining 2015-2023-yillardagi dinamikasi va 2025-2027-yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari

Yil-lar	Navoiy viloyatidagi joylashtirish vositalaridagi o'rinlar 2015-2023-yillardagi polinomial tenglamasi va uning 2024-2026-yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlarining hisob-kitobi	Prognoz ko'rsatkichlari, 2023-yilga nisbatan, oshishi, birlikda	Prognoz parametrlari, 2023-yilga nisbatan o'sishi %
2025	$y_{2025} = 5,364 \cdot 11^2 - 9,0079 \cdot 11 + 98,381 = 648,3$	9063	150,2
2026	$y_{2026} = 5,364 \cdot 12^2 - 9,0079 \cdot 12 + 98,381 = 762,7$	10663	176,7
2027	$y_{2027} = 5,364 \cdot 13^2 - 9,0079 \cdot 13 + 98,381 = 887,8$	887,8	12411

Yangi turistik destinatsiyalarni tashkil etish yoki rivojlantirish nafaqat iqtisodiy va madaniy natijalarni, balki ekologik barqarorlik, ijtimoiy hamjamiyatning rivojlanishi va xalqaro munosabatlarning yanada mustahkamlanishi kabi muhim strategik maqsadlarga erishishga ham yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda Navoiy viloyatida turizm sohasini rivojlantirish, turistik imkoniyatlari va turizmning rivojlanish istiqbollari tahlil qilish natijasida viloyatning 10 ta yangi imkoniyatlari aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Turistik destinatsiyalarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hamda destinatsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish**

yo‘nalishlari” deb nomlangan uchinchi bobida, Navoiy viloyatida turistik destinatsiyalarni samarali tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari, Navoiy viloyatining turistik destinatsiyalari kontentini yaratish, reklama-targ‘ibot ishlarini olib borish yo‘nalishlari hamda turistik destinatsiyalarni rivojlantirishda axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan.




5-rasm. Turistik destinatsiyalarni samarali tashkil etishning tashkiliy mexanizmlari¹³

Turistik destinatsiyalarni samarali tashkil etish uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni qo‘llash, ularning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu mexanizmlar turli strategiyalar, siyosatlar

¹³ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

va amaliyotlarni o'z ichiga oladi. Turistik destinatsiyalarni samarali tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun barcha manfaatdor tomonlarning o'zaro hamkorligi va mas'uliyati talab qilinadi.

Turistik destinatsiyalarni samarali tashkil etishning **tashkiliy mexanizmlari** (5-rasm) va **iqtisodiy mexanizmlari** (6-rasm) asosan, turistik destinatsiyani tashkil qilish va rivojlantirish, ularning moliyaviy samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.



6-rasm. Turistik destinatsiyalarni samarali tashkil etishning iqtisodiy mexanizmlari¹⁴

